



TILSHUNOSLIKDA LINGVOTEJAMKORLIK HODISASINING TADQIQI

Archaboeva Nargiza Nasimovna

O'zMU "Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik" kafedrası o'qituvchisi (O'zbekiston)

Email: archabayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19644683>

Kalit so'zlar: tejamkorlik, leksik birlik, minimalizm hodisasi, pragmatizm, madaniyat.

Tilshunoslikda tejamkorlik tushunchasi talqini qadimgi davrlardan boshlab qo'yila boshladi. Dastlab, yunon faylasufi va tilshunosi Aristotel asarlari orqali o'rganish boshlandi. Mashhur faylasuf Aristotel fikrni qisqa ifodalash uchun tushunchalar o'rniga nomlar qo'llanishini qayd etgan ekan. Masalan, "Barcha nuqtalari markazdan teng uzoqlikda bo'lgan tekislik" tushunchasi o'rniga "aylana" so'zi ishlatiladi.¹

Aristotel fikricha, tabiat ham, inson faoliyati ham ortiqcha harakat qilmaydi: "Tabiat hech narsani bekorga qilmaydi" (ἡ φύσις οὐδὲν μᾶτῃν ποιεῖ). Bu fikr uning «Fizika», «Metafizika» asarlarida qayta-qayta uchraydi. Demak, tejamkorlik — tabiiy qonuniyat sifatida qaraladi². Aristotel ritorikasida tejamkorlik (ifodada me'yor) sifatida anglashilgan. Aristotel «Ritorika» va «Poetika» asarlarida nutq va san'at haqida gapirar ekan: ortiqcha bezak — ma'noni buzadi; haddan ortiq qisqalik — tushunarsizlikka olib keladi. Shuning uchun: nutq aniq, maqsadga muvofiq, ortiqcha unsurlarsiz bo'lishi kerak. Tejamkorlik (οἰκονομία / frónesis bilan bog'liq holda) tushunchasi Aristotel falsafasida bevosita «lisoniy tejamkorlik» ma'nosida emas, balki oqilona me'yor, ortiqcha va kamchilikdan qochish, maqsadga muvofiqlik tamoyili sifatida shakllangan.

Mazkur o'rinda klassik fan taraqqiyoti tilshunoslik oldiga ham fundamental savollarni qo'ydi. Jumladan, Galileodan beri zamonaviy fan uning "tabiat oddiydir va olimning vazifasi buni ko'rsatishdan iborat" degan prinsipi asosida rivojlanib kelmoqda. Mazkur yondashuv til jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan lisoniy tejamkorlik muammosini til tizimidagi o'zgaruvchan, rivojlanuvchi hodisa sifatida o'rganishni dolzarblashtirib o'tadi.

1935 yilda lingvist Jorj Kingsli Zipf inson tiliga xos bo'lgan universal xususiyatni o'zining "The Principle of Least Effort" asarida eng ko'p ishlatiladigan leksik birliklarning tilda ozligi, aksincha kam ishlatiladiganlarining ko'p bo'lishi sabablarini ochib bergan. Jorj Kingsli Zipf fikricha, gap tarkibida ishlatilishi mumkin bo'lgan leksik birliklarning miqdorining kamayishi grammatika, ma'no hamda uslub orqali yuz beradi.

Amerikalik taniqli ligvist Jorj Kingsli Zipf har qanday leksik birlikning uzunligi uning qo'llanish chastotasi bilan teskari munosabatda bo'ladi. Tilshunoslikdagi mashhur **Zipf qonuni** (tejamkorlik va chastotalik bilan bog'liq qonuniyat)ni ilmiy asoslab bergan. Ya'ni, leksik birlik qanchalik qisqa bo'lsa, uning ishlatilish chastotasi shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu hodisa tilga singiganlik xususiyati sababli til hodisasi maqomiga ega bo'ladi. Ligvist Jorj Kingsli ushbu qonuniyatni Law of Abbreviation (qisqartirish qonuni) de ataydi va uni tilning umumiy tuzilishining xossasi deb talqin qiladi. Keyinchalik ushbu qonuniyatning asosiy prinsipi til sohiblarini axborotni aniq yetkazish hamda eng kam kuch sarflash tamoyili o'rtasidagi raqobatli bosimlar sharoitida til birliklarini optimallashtiradi.

¹ Қаранг: Расулов З.И. Нуткий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида) [Матн] / З.И.Расулов. -Бухоро: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022. -Б. 55.

² Aristotle. Physics. (by R. P. Hardie, R. K. Gaye). Vol. I. Harvard University Press / Loeb Classical Library. 1984. -P. 24-35.



Jorj Kingsli Zipfning tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, til birligi va uning qo'llanilish chastotasi o'rtasidagi dialektik bog'liqlik tasodifiy emas. U til sohiblarining aloqa almashinuv jarayonida amal qiladigan optimallashtiruvchi texnikalari natijasida yuzaga keladi. Lisoniy tejamlilik dastavval pragmatik darajada namoyon bo'lib, keyinchalik leksik darajada mustahkamlanadi³. Mashhur amerikalik tilshunos, faylasuf va jamoat arbobi N.Chomskiyning fikricha, avval boshdanoq asosiy maqsad **"eng sodd grammatika"** tushunchasini aniqlash va har bir til uchun eng sodd grammatikani qanday tanlash mumkinligini belgilash edi⁴. Bu esa muallif tomonidan ilgari surilgan lisoniy tejamkorlik tamoyilining faollashuvi borasidagi mulohazalarida o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mazkur hodisa "minimalizm hodisasi" deyiladi.⁵ Ma'lumki, tilning tejamkor qurilma ekanligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan. Transformatsion grammatika doirasida esa ushbu tamoyil "oddiylik" g'oyasiga asoslanadi, ya'ni "minimalizm dasturi" nutqiy aktda unsurlar sonining va qoidalarning kam bo'lishini nazarda tutadi. Shunga binoan, keyingi davrlarda "olmoshlarni qo'llashdan qoch" g'oyasi umumlashuvi natijasida struktur tejamkorlik tamoyili olg'a surildi.⁶ Ilmiy adabiyotlarda bir xil yoki taxminan bir xil til hodisalarini ifodalash uchun qo'llaniladigan terminlarning keng majmuasi mavjud. Tilda tejamlilik tamoyiliga nisbatan xilma-xil talqinlarning mavjud bo'lishi olimlar o'zlarining tadqiqot nuqtai nazaridan mazkur hodisani tavsiflashda o'ziga xos terminologiyani qo'llagan. Jumladan, least action (Maupertuis, 1750), law of economy (Whitney, 1878 [1971]), language economy (Martinet, 1960), economy of effort (Whitney, 1878 [1971]), tendency to ease (Whitney, 1878 [1971]), tendency towards convenience (de Courtenay, 1974) ishlatilgan. Shuningdek, Boersma (1998) — minimal effort (minimal harakat), Bussmann (1996) — law of least effort (eng kam harakat qonuni) hamda Gengerelli (1930) — Maxima and Minimalar taklif etilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda mazkur tamoyilga ilmiy jihatdan mukammal ta'rif fransuz tilshunosi Andrey Martini tomonidan berilgan. Lingvist ushbu tamoyilni chuqur o'rgangan holda uning fanologiya va sintaksis sohalaridagi kengroq darajada qo'llanilishini ochib bergan.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazardan tilning asosiy vazifasi kommunikatsiya ekani keng e'tirof etilganligini ko'rishimiz mumkin. Funksionalistik nuqtai nazarda suhbat jarayonida fikrni yakunlash uchun vaqt cheklangan bo'lib, nutqni ifoda etish imkoniyati boricha tez va samarali amalga oshirilishi lozim.⁷ Ushbu yondashuvning eng kam harakat tamoyili bilan mushtarak hisoblanadi. Mazkur tamoyil jumladan, urg'usiz unli tovushlarning talaffuz qilinmasdan tushib qolishi va assimiliatsiya jarayonlarini izohlaydi. Bu jarayonlar tildagi o'zgarishlarga sabab bo'lib, muayyan nutqiy ifodaning tez va samarali amalga oshishini ta'minlaydi. Tildagi o'zgarishlarni polyak tilshunosi, zamonaviy fonologiyaning asoschilaridan

³ Jasmeen Kanwal, Kenny Smith, Jennifer Culbertson, Simon Kirby. Zipf's Law of Abbreviation and the Principle of Least Effort: Language users optimise a miniature lexicon for efficient communication // *Cognition journal*. 165 (2017) 45-52. -P. 46. homepage: www.elsevier.com/locate/COGNIT

⁴ Chomsky N. The Minimalist program: 20th Anniversary Edition / Noam Chomsky. 20th Anniversary Edition. The Massachusetts Institute of Technology Press Cambridge, Massachusetts London, England, 2015. - P. 8.

⁵ Chomsky N. A Minimalist Program for Linguistic Theory // *The View from Building 20*. – Cambridge, MA.: MIT Press, 1993. –P. 1-52

⁶ Razzi L. A Parametric Approach to Comparative Syntax: Properties of the pronominal system // *The New Comparative Syntax*. –L.: Longman, 1997. -P. 268-285; Cardinatetti A., Starke M. The Typology Structural Deficiency: a Case Study of the three classes of pronouns // *Critics in the language of Europe*. – The Hague: Mounton de Gruyter, 1999. -P. 145-233.

⁷ Elements of general linguistics. by: Martinet, André. Publication date: 1960. -P. 168.



biri Baduen De Kurtene (1877-1972) fikricha, tildagi o'zgaruvchanlikni sabablarini tadqiq etishni dolzarb deb qayd etadi. U kommunikatsiya jarayonida qulaylikka intilishni barcha lingvistik o'zgarishlarning asosiy sababi sifatida talqin qilgan. Lingvist ushbu tendensiyaning tilni rivojlanishi hamda tuzilishini shakllantiruvchi umumiy kuchlardan biri deb hisoblagan.

Mazkur kuch "til rivojlanishining umumiy qonuni" sifatida tavsiflanadi.⁸ Tejamkorlik — bu tilning tabiiy ravishda: ixcham, samarali va qulay bo'lishga intilishi bo'lib, aynan shu xususiyat uning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib tildagi ko'plab o'zgarishlar (qisqarish, soddalashish, umumlashish)

→ barchasi tejamkorlikka borib taqaladi; shuning uchun u "til rivojlanishining umumiy qonuni" deb tavsiflanadi.

Polyak tilshunosi De Kurtene keltirib o'tganidek, murakkab artikulyatsiyali tovushlarni sodda tovushlar bilan almashishi jarayonida eng kam harakat tamoyili, shuningdek, so'zlovchi va tinglovchini (adresat va adresant) o'rtasidagi minimal muloqot kuzatiladi. Kurtunedan farqli Martini fikricha, eng kam harakat tamoyili insonga xos bo'lgan inersiya sifatida ta'riflaydi, so'zlovchi va tinglovchini (adresat va adresant) o'rtasidagi ortiqcha sa'y harakatdan cheklanishni nazarda tutadi. Uning fikricha, minimal energiya sarfiga intilish tendensiyasi jumladan, qisqaroq va kamroq sa'y harakat talab etuvchi leksik birliklarni tanlashda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan Jorj Kingsli Zipf (1949-1972) taklif etgan modelga muvofiq tilda ikki turdagi sintagmatik va paradigmatic tejamkorlikni ajratib ko'rsatadi.

Sintagmatik tejamkorlik qisqaroq va kamroq sa'y-harakat talab etuvchi leksik birliklarni tanlashda namoyon bo'ladi. Sintagmatik tejamkorlikka quyidagicha misol keltirish mumkin. Masalan, vacuum cleaner o'rniga hoover so'zining qo'llanilishi to'rt bo'g'inli nom ikki bo'g'inli so'z bilan almashtiriladi. Mazkur o'rinda keltirilgan hoover so'zi vacuum cleaner ga nisbatan qisqa va aniq ifoda etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Come on, kids, let's take the vacuum cleaner and clean the Floor.

Come on, kids, let's take the hoover and clean the Floor.⁹

Ikkinchi gap birinchiga nisbatan: qisqaroq, soddaroq, tezroq ifodalanadi.

Shuning uchun u lingvotejamkorlik tamoyiliga ko'proq mos keladi. Ya'ni tilda keraksiz uzunlikdan qochib, ixcham va samarali ifodaga erishilgan.

A.Martini fikriga muvofiq zamonaviy ingliz tilida uzun leksik birliklarni ko'p hollarda brend nomlari bilan almashtirish kuzatiladi.

Could you put the milk in the Fridge? (Sutni muzlatgichga qo'ya olasizmi?) Ushbu gapda: ixchamlik, ko'p ma'nolilik (savol + iltimos), ortiqcha so'zlardan qochish kabi xususiyatlar orqali lingvotejamkorlik namoyon bo'ladi. Ya'ni tilda kam vosita bilan samarali va madaniyatli muloqot qilish ta'minlangan.

Paradigmatic tejamkorlik esa gapiruvchi yodlashi lozim bo'lgan va nutq jarayonida tanlaydigan birliklar ro'yxatiga yangi element qo'shilishidan qochamiz. Shu bois qisqaroq so'zni tanlash xotiraga tushadigan yukni kamaytiradi. Shu o'rinda nutqda energiya sarfi doim ham izchil kuzatilmaydi. Ya'ni, u gapirish istagi yoki ehtiyoji bilan tenglashtiriladi. Jismoniy charchoq

⁸ Małgorzata Kul. The principle of least effort within the hierarchy of linguistic preferences: external evidence from English / Praca doktorska napisana pod kierunkiem prof. dr hab. Katarzyny Dziubalskiej Kołaczyk w Instytucie Filologii Angielskiej Uniwersytetu im. Adama Mickiewicza. - Poznań 2007. -P. 57.

⁹ Martinet André. Économie des changements phonétiques. Berne: A. Francke, 1960.



holatida esa gapirish yoki tinglash qanchalik energiya talab qilishini anglash osonlashadi. Inson horigan va charchagan paytlari ravon nutq so'zlash va to'g'ri ifoda topish qiyinlashadi.

At a restaurant and the menu offers several soft drinks: Coca-Cola, Pepsi, Fanta, Sprite. If you usually choose Coca-Cola, you would simply say:

"I'll have a Coca-Cola, please."¹⁰ Menyuda bir nechta ichimliklar (Coca-Cola, Pepsi, Fanta, Sprite) berilgan bo'lsa-da, gapiruvchi faqat: "I'll have a Coca-Cola, please." deb aytadi.

Ushbu misolda: ortiqcha ma'lumot aytilmagan, kontekstdan foydalanilgan, ixcham va samarali gap qurilgan.

Shu sababli, "I'll have a Coca-Cola, please" gapi **lingvotajamkorlik hodisasining amaliy ko'rinishi** hisoblanadi.

A Martinining ta'kidlashicha, ya'ni til o'z vazifasini bajarayotgani uchun o'zgaradi. Tajamlilik prinsipi til rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida XX asrning mash'um voqeasi bo'lgan Ikkinchi jahon urushi voqealari E.Vohidov ijodida quyidagicha aks etadi.

Ko'z oldidan o'tar qirq birinchi yil

Maskov bo'sag'asi Achchiq qahraton. (E.Vohidov. Muhabbat, 183-bet)

Alisher Navoiyning «Hayratul abror» asaridagi:

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,

Ki olam ko'rmadi sulton aningdek. (Navoiy. «Hayratul abror»)

Shuningdek, Navoiy ushbu ikki misrada Mirzo Ulug'bek haqidagi bir necha muhim ma'lumotni jamlagan:

Ulug'bek ning nasabi (Temurxon avlodi), davlat boshlig'i ekani (sulton), betakror shaxs ekani (olam ko'rmagan darajada).

Zokirjon Furqatning:

Sayding qo'yaber, sayyod,

Sayyora ekan mendek (Furqat)

Mazkur o'rinda "sayyod" (ovchi) va "sayd" (ov) obrazlari orqali munosabatni, "mendek sayyora" ifodasi bilan esa o'zini erkin, qo'lga tushmas mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu yerda katta falsafiy va badiiy ma'no kam so'z bilan berilgan.

Shu o'rinda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli xalq boshqalarning tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi"¹¹ degan fikrini lingvotajamkorlik (ya'ni tilda tajamkorlik, iqtisod qilish) hodisasi bilan bog'lab quyidagicha izohlash ham mumkin:

- til me'yorlariga amal qilish, uning ichki qonuniyatlarini asrash, ortiqcha, asossiz chet til elementlarini kamaytirishni o'z ichiga oladi.
- har bir tilning o'z ichki tizimi va tajamkorlik mexanizmlari mavjudligini hamda boshqa tildan so'z olishda (zaimstvovanie) ortiqcha takror va noo'rin qo'llanishdan saqlanish kerakligini hisobga lozim.

Mazkur fikrda lingvotajamkorlik faqat zarur bo'lgan holatda o'zlashmalardan foydalanish hamda tillararo muvozanatni saqlash orqali namoyon bo'lishini ko'rish mumkin.

Demak, tajamkorlik tamoyilining xarakterli xususiyatlarini va til taraqqiyotida tutuvchi o'rnini tilshunoslikdagi mavjud qarashlar yordamida quyidagicha ta'riflash mumkin: a) tajamkorlik

¹⁰ Restaurant menu. дан олинган

¹¹ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. –Б.35.



tamoyili til taraqqiyotini xarakterlab beruvchi faktorlardan biridir b) tildagi tejamkorlik tamoyilining mohiyati shundaki, u «qisqa vaqt birligi mobaynida maksimum axborot uzatishni ta'minlaydi, boshqacha aytganda, tilning kommunikativ funksiyasini oshirishga ko'maklashadi» binobarin, «til hamisha ortiqcha narsalardan, ya'ni o'zida axborot tashimaydigan va tushuntirishga ko'maklashmaydigan so'z, bo'g'in va grammatik shakllardan xoli bo'lishga intiladi» v) tejamkorlik tamoyili - «favqulodda qiyin va qaramaqarshiliklarga to'la tendensiyadir, u faqat moddiy substansiyada (zot) namoyon bo'lmasdan, balki relyatsion karkasning va til semantik maydonining barcha uchastkalarida amalda bo'ladi» g) linvistik tejamkorlik til taraqqiyoti va amalda bo'lishini belgilab beruvchi yagona tamoyil emas, ammo bu qonuniyating undagi ahamiyati katta. Ushbu fikr analogiya yo'li bilan fikrlaganda ham o'z tasdig'ini topadi. Til vositalarini tejash til taraqqiyoti va amal qilinishida asosiy vosita bo'lmaganidek, ishlab chiqarishni rivojlantirishda moddiy resurslarni tejash ham asosiy vosita bo'la olmaydi; d) tejamkorlik tamoyilining ta'siri tilning ortiqchalikka intilishi tendensiyasi bilan bartaraf qilib turiladi.¹²

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash o'rinliki, tilshunoslikda lingvotejamkorlik hodisasining tadqiqi o'rganilishi lozim bo'lgan masalalardan biri sifatida fundamental ahamiyat kasb etadi. Tejamkorlik hodisasi tilshunoslikdagi dolzarb bo'lgan leksik birlik sifatida minimalizmni o'zida aks ettiradi. Tejamkorlik hodisasining pragmatistik tamoyili nutq aniq, maqsadga muvofiq, ortiqcha unsurlarsiz bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Tilda tejamkorlik hodisasi eng kam harakat prinsip yoki mexanizm bo'lib, nutq energiyasi, diqqat va kognitiv resurslarni minimal sarflab, ma'no va tushunish samaradorligini maksimal darajaga chiqarishga xizmat qiladi.

References:

1. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Rasulov Z.I. Nutqiy tuzilmalar axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi jarayonida tejamkorlik tamoyilining faollashuvi (ingliz va o'zbek tillari materiali asosida) [Matn] / Z.I.Rasulov. -Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.
3. Aristotle. Physics. (by R. P. Hardie, R. K. Gaye). Vol. I. Harvard University Press / Loeb Classical Library. 1984. -P. 24–35.
4. Jasmeen Kanwal, Kenny Smith, Jennifer Culbertson, Simon Kirby. Zipf's Law of Abbreviation and the Principle of Least Effort: Language users optimise a miniature lexicon for efficient communication // Cognition journal. 165 (2017) 45–52. -P. 46. homepage: www.elsevier.com/locate/COGNIT
5. Chomsky Noam. The Minimalist program: 20th Anniversary Edition / Noam Chomsky. — 20th Anniversary Edition. The Massachusetts Institute of Technology Press Cambridge, Massachusetts London, England, 2015.
6. Chomsky N. A Minimalist Program for Linguistic Theory // The View from Building 20. – Cambridge, MA.: MIT Press, 1993.
7. Razzi L. A Parametric Approach to Comparative Syntax: Properties of the pronominal system // The New Comparative Syntax. –L.: Longman, 1997. –P. 268-285;

¹² Элтузаров Ж.Д. Тилдаги тежамлилиқ тамойили ва қисқарув. Монография. -Самарқанд: СамДУ, 2004. -Б. 28.



8. Cardinatetti A., Starke M. The Typology Structural Deficiency: a Case Study of the three classes of pronouns // Critics in the language of Europe. – The Hague: Mouton de Gruyter, 1999. –P. 145-233.
9. Małgorzata Kul. The principle of least effort within the hierarchy of linguistic preferences: external evidence from English / Praca doktorska napisana pod kierunkiem prof. dr hab. Katarzyny Dziubalskiej Kołaczyk w Instytucie Filologii Angielskiej Uniwersytetu im. Adama Mickiewicza. - Poznań 2007. -P. 57.
10. Martinet André. Économie des changements phonétiques. Berne: A. Francke, 1960.
11. Eltuzarov J.D. Tildagi tejamlilik tamoyili va qiskaruv. Monografiya. -Samarqand: SamDU, 2004.